

DORIVOR O‘SIMLIKLARNING XAVFSIZLIGI: RAYHON, KASHNICH, ARPABODIYON MISOLIDA

Akbaraliyeva Fotima Adxamjon qizi, Saydaliyeva Feruza Avazxonovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Tibbiyot fakulteti, Toshkent, O‘zbekiston.

Dolzarbligi. O‘zbekiston aholisi orasida xalq tabobatiga, xususan dorivor o‘simliklarga murojaat qilish keng tarqalgan. Rayhon, kashnich va arpabodiyon xalq orasida eng ko‘p qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklardan sanaladi. Biroq ushbu o‘simliklardan noto‘g‘ri yoki me‘yordan ortiq foydalanish sog‘liq uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Shu bois ularning foydali va nojo‘ya ta‘sirilarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Maqsad. Rayhon, kashnich va arpabodiyon dorivor o‘simliklardan xalq tabobatida o‘rinli qo‘llanilishini yoritib berishdan iborat.

Natija. Rayhon (*Ocimum basilicum*) o‘z tarkibida evgenol, linalool, flavonoidlar va efir moylarini saqlaydi. U tabiiy antibiotik hisoblanadi, shamollash, isitma, hazm buzilishlari va og‘iz bo‘shlig‘i yallig‘lanishida foydali. Ammo ortiqcha miqdorda qo‘llanganda jigar faoliyatini susaytirishi va homilador ayollarda bachadon qisqarishini kuchaytirishi mumkin. Kashnich (*Coriandrum sativum*) tanani og‘ir metallar va toksinlardan tozalash, suvni tabiiy tozalash xususiyatiga ega. Shuningdek, hazmni yaxshilaydi va organizmni C vitamini bilan boyitadi. Lekin qon bosimini pasaytiruvchi dori vositalari bilan birga qo‘llansa, gipotoniya xavfini oshiradi. Arpabodiyon (*Anethum graveolens*) tarkibida anetol, C vitamini, kaltsiy va temir mavjud. U ovqat hazmini yaxshilaydi, yurak faoliyatiga ijobiy ta‘sir qiladi va spazmlarni kamaytiradi. Ammo past bosimli bemorlarda bosh aylanishi, holsizlik va qon ivish jarayoniga ta‘siri tufayli dori vositalari bilan ehtiyotkorlik bilan birga qo‘llash zarur.

Xulosa. Rayhon, kashnich va arpabodiyon xalq tabobatida keng qo‘llaniladigan foydali o‘simliklar bo‘lib, ularning tarkibidagi biologik faol moddalar inson salomatligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, biroq me‘yordan ortiq qo‘llanilsa, nojo‘ya ta‘sirilar yuzaga keladi. Dorivor o‘simliklardan foydalanish JSST tavsiyalariga muvofiq, tibbiyot mutaxassisi nazoratida amalga oshirilishi lozim.